
RASMIY MUNOSABAT



Ijtimoiy tarmoqlarda Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasidagi oqava suv (kanalizatsiya) tizimi bilan bog'liq e'lon qilingan tanqidiy murojaat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tuman tibbiyot birlashmasi markaziy shifoxonasi 1986-yilda qurib bitkazilgan hamda 2013-yilda mukammal ta'mirdan chiqarilgan. Bugungi kunda muassasada 103 o'rin joy tug'ruq bo'limi, 58 o'rin joy bolalar bo'limi hamda 100 qatnovli Ko'p tarmoqli markaziy poliklinika xizmat ko'rsatadi. Shifoxonaning oqava suv (kanalizatsiya) tarmog'i lokal tizimda qurilgan bo'lib, ayni vaqtda yaroqsiz xolatga kelgan.

Hozirda shifoxonadagi oqava suv (kanalizatsiya) bilan bog'liq muammoni hal etish chora tadbirlari ko'rib, moliyaviy hisob-kitob ishlari amalga oshirilayotganligini ma'lum qilamiz.

Qo'shtepa tumani hokimligi axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-03-27 11:57:57